



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

QIZ BOLA TARBIYASIDA OILAVIY MUHITNING O'RNI: TO'LIQ VA NOTOLIQ OILA TAQQOSLANISHI

Eshpulatova Muhayyo Mardon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, farzand tarbiyasida oila muhim ahamiyatga ega ekanligi. Noto'liq oilalarda qiz farzandlarni tarbiyasi, qizlarimizni oila ostonasiga qadam qo'yishida muhim maskan ekanligi, farzandlarimiz tarbiyasida oilaviy qadryatlarning naqadar muhimligi va uning bo'g'inlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, qizlar tarbiyasi, pedagogik va psixologik tushunchalar, qadryat, an'ana, urf-odat, milliylik.

THE ROLE OF FAMILY ENVIRONMENT IN THE UPBRINGING OF GIRLS: A COMPARISON OF COMPLETE AND INCOMPLETE FAMILIES

Eshpulatova Muhayyo Mardon qizi

Independent researcher at the National Pedagogical University of
Uzbekistan named after Nizami

Annotation. V etoy state govoritsya, chto semya yavlyaetsya osnovnym zvenom obshchestva, chto semya igraet vajnyuyu role v vospitanii detey. Osoboe vnimanie bylo udeleno vospitaniyu devochek v nepolnyx semyakh, vajnosti semeynykh cennostey v vospitanii nasikh detey i ix sostavlyayushchix.

Keywords: family, children, education of girls, pedagogical and psychological concepts, values, traditions, customs, nationalism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i13/n24>

Jamiyat taraqqiyoti bevosita oilaga, oiladagi muhit esa farzand tarbiyasiga bog'liqdir. Ayniqsa, qiz bolalar tarbiyasi masalasi har qanday jamiyatda muhim o'rin tutadi. Chunki bugungi qiz — ertangi ona, murabbiy va jamiyatning ma'naviy ustunidir. Sharqona qadriyatlarda ham qiz tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat masalasidir" deb bejiz ta'kidlanmagan[1]. Bu fikr qiz bolalar tarbiyasiga ham bevosita taalluqlidir. Qiz bola shakllanishida oilaviy muhit — eng asosiy maktab hisoblanadi. To'liq va notoliq oilalarda bu muhitning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ularning qiz bola shaxsiyati rivojiga ta'siri turlicha namoyon bo'ladi.

To'liq oilada tarbiya: muvozanat va barqarorlik.

Abdurauf Fitratning "Oila " nomli risolasida agar uylanmoqchi bo'lsang qanday qizga uylan lozim? Uylanish bo'lsa to'rt narsaga ahamiyat berish lozim, -mol -nasab -xusun - iymonlisiga uylanish lozim bo'lgan er-xotinning (mol) boyliklari va nasablari taqriban bir-xil bo'lishi lozim. Aks xolda er va xotin bir-birlariga teng bo'lmay, ikkinchi tamonni faqirlik va zoti pastlikda ayblab, xayotini mudom, xayotini mudom azobga qo'yadi.[2]

Xususan Islomiy tarbiya bu muhim bir qisim hisoblanadi. Jamol (xusun) bu ko'rinish demakdir. Ya'ni qarayotgan kishi nazariga chiroyli ko'rinib, uning qalbini moyil qilish

demakdir. Qalbda paydo bo'lgan bu moyillikni muhabbat deyish mumkin. Xayotda do'st, baxt va baxtsizlikda sherik, g'am-qayg'u paytlarda xamd, xushnud paytlarda bir-biriga yor bo'lishni istagan erkak va ayol, shaxsiy va ijtimoiy vazifalarni birgalikda bajarish kerak. Ularning o'rtalarida ana shunday qalbiy moyillik va muhabbat bo'lmasa, uylanish o'z-o'zidan zararaga aylanadi.

Oila asl ma'nosi arabcha " Ayolmand", "Niyozmand" ma'nosini anglatuvchi so'zdan olingan. Oila inson uchun muqaddas dargoh bo'lib, u inson-larning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlari zamirida yuzaga kelgan. Oila taqdiri uning rasmiy tus olish lahzasidan boshlanadi, shundagina er xotin oldida, xotin er oldida, ular ota-ona sifatida farzandlaru qavmu qarindoshlar, mahalla-ko'y, jamiyat oldida, o'z navbatida, farzandlar ham o'z ota-onalari va el-yurti oldida mas'uliyat sezaдилar va burchli ekanliklarini his qilib yashaydilar[2].

Oila jamiyat ichidagi kishilar birligi sifatida shu jamiyat nizomlari asosida yashasa-da, oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisadir, uning ichki ishlari unda yashovchilarning o'z shaxsiy yumushlari hisoblanadi, oila ishlariga birovning aralashuviga haqqi Yo'q, shu ma'noda oila jamiyatning muqaddas va daxlsiz uyidir yoxud boshqacha qilib obrazli ifodalaganda, oila mustaqil muxtoriyatdan iborat saltanatdir.

Noto'liq oila nikohning bekor qilinishi, nikohsiz tug'ilgan farzand, ota-onadan birining vafoti yoki ularning alohida yashashi oqibatida vujudga keladi. Shu asosda noto'liq oilalarning quyidagi turlari ajratiladi: nikohsiz, yetim, ajrashgan va tarqoq oilalar. Shuningdek, noto'liq oilalar otalik va onalik turlariga ham bo'linadi ya'ni bolaning tarbiyasi bilan qaysi ota-ona shug'ullanayotganiga qarab. Noto'liq oilada hatto chin dildan g'amxo'rlik qiladigan ayol ham bolani tarbiyalash uchun yetarli vaqtga ega bo'lmaydi. Onalarning mehnat bilan haddan tashqari bandligi va zo'riqishi tufayli, bolalar ko'pincha o'z holiga tashlab qo'yiladi. Tarbiya jarayonida yagona otaona tomonidan bolani to'liq nazorat qilish, uning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish ancha murakkab bo'ladi. Samarali tarbiyani amalga oshirishga bir qator obyektiv omillar ham to'sqinlik qiladi: oila ichidagi an'anaviy uchlik - "ota-ona-bolalar" tizimi buziladi. Bunga asosiy sabab - ota-onaning, ayniqsa onaning ishdagi haddan ortiq bandligi bo'lib, bu holat farzandga zarur darajada e'tibor berilishiga to'sqinlik qiladi.[6]

To'liq oilada qiz bola ota va ona mehrini birdek his qiladi. Psixologlarning fikricha, bolalar uchun ikki xil — erkak va ayol tarbiya modeli juda muhim. Ota — qat'iyat, himoya va tashqi dunyo bilan tanishtiruvchi timsol bo'lsa, ona — mehr, biri boy va kalanzoda bo'lsa, sabr va ichki dunyo tarbiyachisidir. Masalan, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota bilan yaqin munosabatda ulg'aygan qizlarda o'ziga ishonch yuqori bo'ladi va ular kelajakdagi munosabatlarda sog'lom qarorlar qabul qilishga moyil bo'ladi. To'liq oilada ulg'aygan qiz bola:

- oilaviy rollarni to'g'ri anglaydi
- ijtimoiy muhitga tez moslashadi
- ruhiy jihatdan barqarorroq bo'ladi.

Ammo bu ideal holat har doim ham amalda bo'lavermaydi. Agar oilada nizolar, janjallar yoki befarqlik hukm sursa, bu qiz bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Notoliq oilada tarbiya: sinov va imkoniyatlar, notoliq oilada tarbiya topayotgan qiz bolalar ko'pincha hayotiy qiyinchiliklarga erta duch keladi. Masalan, otasiz o'sayotgan qizlarda erkak obraziga oid tushunchalar cheklangan bo'lishi mumkin. Bu esa ayrim hollarda ishonch muammolariga

yoki noto'g'ri qarorlar qabul qilishga olib keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha bolalarning sezilarli qismi notoliq oilalarda ulg'aymoqda (turli manbalarda bu ko'rsatkich 20–30% atrofida ekani qayd etiladi). Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.[3] Shu bilan birga, notoliq oila faqat muammo emas — u imkoniyat hamdir. Agar yagona ota-ona: farzandiga yetarli mehr bersa, ochiq muloqot qilsa, to'g'ri qadriyatlarni singdirsada unda qiz bola kuchli, mustaqil va hayotga tayyor shaxs bo'lib ulg'ayadi. Masalan, ko'plab muvaffaqiyatli ayollar aynan notoliq oilada ulg'aygan bo'lib, bu ularni yanada qat'iyatli qilganini ta'kidlashadi. Taqqoslash: muhim mezon — muhit sifati To'liq va notoliq oilalarni taqqoslar ekanmiz, quyidagi muhim xulosaga kelamiz: To'liq oila — imkoniyat jihatidan ustun hisoblanadi. Notoliq oila — tarbiya sifati ko'proq bog'liq. Eng muhim omil — bu oiladagi mehr, hurmat va psixologik sog'lomlikdir. Agar to'liq oilada doimiy janjal bo'lsa, bu noto'liq, ammo mehrli oiladan ko'ra zararliroq bo'lishi mumkin. Shu bois mutaxassislar "sog'lom muhit — ideal shakldan ustun" degan fikrni ilgari suradilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qiz bola tarbiyasida oilaviy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. To'liq oilada tarbiya ko'proq muvozanatli bo'lishi mumkin, biroq notoliq oilada ham to'g'ri yondashuv orqali barkamol avlodni tarbiyalash mumkin. Eng muhim jihat — bu farzandga mehr berish, uni tushunish, qo'llab quvvatlash va to'g'ri yo'l ko'rsatishdir. Chunki qiz bola qanday muhitda ulg'aysa, kelajakda jamiyatga ham shunday ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, har bir ota-ona — u to'liq oilada bo'ladimi yoki yo'q — o'z zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his etib, qiz farzand tarbiyasiga jiddiy yondashishi lozim. Adabiyotlar 1. Abdurauf Fitrat "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" Toshkent "Ma'naviyat" 2016. 2. Oxunjon Safarov, Mels Mahmudov "Oila ma'naviyati" Toshkent "Ma'naviyat" 2009 yil

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — Toshkent: O'qituvchi, 1992. — 160 b.
2. Fitrat, A. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2016. — 144 b.
3. Safarov, O., Mahmudov, M. *Oila ma'naviyati*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2009. — 192 b.
4. Hasanboyev, J., To'raqulov, X., Haydarov, M., Hasanboyeva, O. *Pedagogika fanidan izohli lug'at*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. — 672 b.
5. Musurmonova, O. *Oila ma'naviyati — milliy g'urur*. — Toshkent: O'qituvchi, 1999. — 200 b.
6. Noto'liq oilaning jamiyatdagi o'rni va psixologik ta'siri G.X. Rustamova "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz
7. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. — Toshkent: Adolat, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.